



# **TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI, TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

## **MATERIALLARI**

**2025-yil 29-30-sentabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
SIRDARYO VILOYATI HOKIMLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI,  
TURKIYA RESPUBLIKASI BALIKESIR UNIVERSITETI,  
TURKIYA RESPUBLIKASI FIRAT UNIVERSITETI,  
YANGLING KASB-HUNAR VA TEXNIKA KOLLEJI**

**“TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI:  
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB  
MUAMMOLARI, YECHIMLARI,  
TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**MATERIALLARI**

**2025-yil 29-30-sentabr**

**“BOOKMATY PRINT”  
TOSHKENT – 2025**

**UO‘K: 811(075)**

**KBK: 81.1**

**T 42**

Tilshunoslikning amaliy masalalari: zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari, yechimlari, taraqqiyoti va istiqbollari [Matn]: to‘plam. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 654 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘iga asosan **Guliston davlat universitetida 2025-yil 29-30-sentabr kunlari** o‘tkazilgan **“TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI, TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Anjuman zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb ilmiy mavzulari va amaliy masalalariga doir uslubiy ishlanmalarni aks ettirishga qaratilgan.

**Mas’ul muharrirlar:**

f.f.f.d. (PhD), dotsent A.Axrorov, f.f.d., professor F.Sharipov, f.f.d., professor I.Ermatov, f.f.n., dotsent J.Abdullayev, f.f.n., dotsent I.Pardayeva, f.f.f.d. (PhD), dotsent. M.Latipov, Prof. Dr. Banovsha Mammadova Guloghlani, Prof. Dr. Ertan Örgen, Prof. Dr. Suheyra Demirkol Orak.

**Tahrir hay’ati:**

A.Axrorov, A.Mamatqulov, Sh.Ro‘ziqulov, Z.To‘ychiyeva

To‘plamga keltirilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar hamda fikr-mulohazalar, takliflarning to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar

**ISBN 978-9910-06-724-2**

© Guliston davlat universiteti, 2025.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

2. Yermolayeva, L.S. The Neohumboldtian School in Contemporary Bourgeois Linguistics. Problems of General and Specific Linguistics. Moscow: Publishing House of the Higher Party School and Academy of Social Sciences under the CPSU Central Committee, 1960. pp. 47–86

3. Sakharova, A.V. Linguistic Personality in the Space of Communicative Reality: In Search of a Research Paradigm: // Scientific Notes of Orel State University, Orel: OrelSU, – 2014. № 4, – pp. 95–98. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yazykovaya-lichnost-v-prostranstve-kommunikativnoy-realnosti-v-poiskah-paradigmy-issledovaniya>

4. Weisgerber, J.L. Native Language and the Formation of Spirit. Trans. from German, intro. art. and commentary by O.A. Radchenko. 2nd ed., revised and expanded. – Moscow: Editorial URSS, – 2004. – 232 p.

## NOMUTANOSIBLIKNING DIAXRON VA SINXRON TAHLILI

*Uralov Azamat Begnarovich,  
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi professori,  
filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mumtoz adabiyotlarimizda sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlari qiyoslanib tahlil qilingan. Nomutanosiblikning ko‘rinishlari, yuzaga chiqishi tadqiq etilgan. Allomorflarda, kesimlik, egalik, kelishik shakllarida nomutanosiblikning qanday yuzaga chiqishi ilmiy isbotlab berilgan. Maqolaning yozilishida A.Navoiy asarlari tanlab olinib tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** sinxroniya, diaxroniya, allomorf, kesimlik, egalik, kelishik shakllari, sintagma, nomutanosiblik, fe‘l.

**Abstract.** This article compares and analyzes the diachronic and synchronous manifestations of asymmetry in syntagmas in our classical literature. The manifestations and manifestations of asymmetry are studied. It is scientifically proven how asymmetry occurs in allomorphs, inflectional, possessive, and conjunctive forms. In writing the article, the works of A. Navoi were selected and analyzed.

**Keywords:** synchrony, diachrony, allomorph, inflectional, possessive, conjunctive forms, syntagma, asymmetry, verb.

Morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlarini tadqiq qilish sintagmani semiotikaga, paradigmaga bog‘lab o‘rganishni talab etadi. Har qanday sintagmadagi morfologik shakl(lar) ma‘lum paradigmaga asoslangan bo‘lib, semiotik jihatdan mutanosib yoki nomutanosib bo‘lishi mumkin. Shu sababli paradigmada mavjud bo‘lgan birliklar semiotikaga bog‘liq holda o‘rganiladi. Sintagma ko‘rinishidagi mutanosiblik nutq zanjirida ifoda va mazmun tengma-teng tarzda belgilanishini taqozo etadi, ya‘ni ifodalanuvchi mazmun va shakllar miqdori mos keladi. Bu holat ayni damdagi sinxroniyaning

mahsulidir. Ammo diaxroniya sintagmadagi har bir shaklni sinchiklab, qiyoslab o'rganishni taqozo etadi. Bunda ifoda birliklarining mazmun birliklariga nisbatan miqdori teng kelmay qolib, turli nomutanosibliklarning yuzaga kelishi holatlari kuzatiladi.

Masalaning yana bir tomoni mumtoz asarlarda morfem birliklarning tadrijiy taraqqiyoti, ularda ro'y bergan o'zgarishlar xususiga qaratiladi. Bunda Alisher Navoiy asarlari tilida morfem birliklarning diaxroniyasi – tadrijiy taraqqiyoti va o'zgarishlarini “Mahbub ul-qulub”, “Munshaot”, “Vaqfiya” asarlari misolida ko'rib chiqamiz. Navoiyning asarlari bugungi kunga qadar badiiy va ilmiy manba sifatida sevib o'qiladi, chuqur tahlil etiladi, chog'ishtiriladi, milliy tilimizning asoslaridan biri sifatida talqin etiladi. Navoiy asarlari tilining bugungi kundagi tadrijiy taraqqiyoti keng ko'lamda o'rganilmoqda. Tahlil uchun tanlab olingan “Mukammal asarlar to'plami”[1] (20 jildlik, 14 jild)dan ayrim misollarni ko'rib chiqamiz va bugungi kundagi morfologik shakllar bilan solishtiramiz. Natijada morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko'rinishlari oydinlashadi.

Asardagi mustaqil so'zlar va ularga qo'shilayotgan morfologik shakllar bugungi kunda to'liq amalda yo'q, chunki ularning ayrimlari iste'moldan chiqib ketgan yoki o'zgarishlarga uchragan. Lekin shuni alohida ta'kidlash mumkinki, ko'plab morfologik shakllarda tarixiy taraqqiyot tufayli o'zgarishlar sodir bo'lgan. Asos morfemalarning esa ayrimlari turli o'zgarishlarga uchragan.

Sintagmada tovush almashishi hodisasi tufayli “arig'i”, “zarnigorlig'idin” kabi so'zlarning morfemalari tarkibidagi “q” va “k” tovushlari “g” tovushiga almashgan bo'lsa, “ko'ngil” so'zining “ko'nglumni” (191-bet), “ko'nglungga” (49-bet), “nutqung” (160-bet) variantida tovush tushishi hodisasi bilan bir qatorda egalik qo'shimchasining -um, -ung shakllarini keng ishlatilganini kuzatamiz. Sintagmada diaxron jihatdan ifodalanayotgan ko'ngil+um, ko'ngil+ung+ga kabi so'zlarning tarkibidagi egalik shakllari -um, -ung shaklida ifodalangan. Bu jarayon taraqqiyot natijasi sababli emas, singarmonizmning mahsuli sifatida qaraladi. Chunki o'sha davrda hozirgi ko'rinishdagi morfologik shakllar ham parallel ishlatilgan. Davrlar nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, o'tmishdagi ko'plab allomorflarning hozirgi kunda ishlatilmasligiga guvoh bo'lamiz. Bu esa diaxron va sinxron shakllarning o'zaro nomutanosibligini ko'rsatadi. Til taraqqiyotining morfologik shakllarga ta'sir natijasi o'laroq “vaqufung” (49-bet) so'zida ham egalik shaklining allomorfini ko'rish mumkin. Shu bilan bir qatorda bugungi tilimizda mavjud bo'lgan egalik shakllarining ham parallel ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz: “shuuring”, “namozi”, “ichiga”, “nidosi” (49-bet). Solishtiramiz: diaxron shakl: faquf-um, nutq-um, ko'ngil-um; faquf-ung, nutq-ung, ko'ngil-ung; faquf-u, nutq-u, ko'ngil-u. Sinxron shakl: vaqf-im, nutq-im, ko'ngil-im... Ko'rindiki, sintagmada o'rinishgan egalik shakli asos tarkibidagi lablangan unlining (“u”) talabi bilan o'zgarmoqda. Demak, sintagmalarda egalik shakllarining diaxron ko'rinishi o'sha davrga nisbatan ham, sinxron ko'rinishga nisbatan ham nomutanosibdir.

Kelishik shakllarining ham turli ko'rinishda (variantlarda) ifodalanishi mavjud bo'lib, bu jarayon sintagmada o'rinishishi tabiiy holatda bo'lgan. Kelishik shakllarining turli shakl (ko'rinish)larda ishlatilishi o'sha davr uchun odatiy hol

bo'lib, har bir shaklning o'z variantlari to'liq iste'molda bo'lganligi kuzatiladi. Bu holat o'sha davrning kelishik shakllarida nomutanosibliklar mavjud bo'lganligini ko'rsatsa, hozirgi shakllarga nisbatan ham nomutanosib bo'lib qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Chiqish kelishigi *-dan* shakli eski o'zbek adabiy tilida *-din* shakli bilan ifodalangan. "Munshaot" asarining 191-betida "*atrofdin*", "*alardin*", "*ishidin*", "*bundin*", "*yodidin*", "*qatoridin*", 193-betida "*duodin*", "*zulmatidin*", "*mazmunidin*", "*falakdin*" kabi so'zlarda va "Mahbub ul-qulub" asarida esa "*xayolidin*" (48-bet), "*shiddatidin*", "*nidosidin*", "*huridin*", "*uyotdin*" (49-bet) kabi so'zlar tarkibida chiqish kelishigi shakli *-din* variantida ishlatiladi. Asarning boshqa qismlarida ham *-dan* shaklini uchratish qiyin. Bundan aniq bo'ladiki, eski turkiy tilimizda chiqish kelishigi shakli *-din* variantida mavjud bo'lgan va tarixiy taraqqiyot natijasida bugungi holatga kelib qolgan. *Zulmat+i+din*, *mazmun+i+din* shaklidagi diaxron varianti *zulmat+i+dan*, *mazmun+i+dan* shaklidagi sinxron variantidan biroz farq qilib, chiqish kelishigi shaklining bu holati sintagmada emas, ikki shakl o'rtasidagi nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Diaxron jihatdan tushum kelishigi asosan ikki variantda ishlatgan. Bugungi kunda she'riyat talabi bilan qisqargan *-n* shakli hamda adabiy tildagi invariant shakli *-ni* teng qo'llanilgan: "takallumin" (57-bet), "tutmog'onni" (87-bet). Diaxron jihatdan adabiy normada bo'lgan har ikki shakl o'sha davr uchun ham, bugungi kun uchun ham mutanosib emas. Morfologik sintagmada *takallum+i+n – tut+ma+g'on+ni* kabi so'zshakl tarkibida tushum kelishigiga nisbatan nomutanosiblikni kuzatsak, sifat-doshning *-g'on* shakli sintagmatik nomutanosiblikni ko'rsatmoqda. Demak, shakllar sintagmada o'ziga xos simmetriya holatida bo'lmay, tilning o'z talabiga ko'ra turli davrlarda yoki so'z tarkibida nomutanosib bo'lib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, *-ni* (*-n*) tushum kelishigi shakli nomutanosiblikni ham diaxron, ham sinxron ko'rinishlariga misol bo'la oladi.

Kelishiklar borasidagi tahlillar jo'nalish kelishigining ishlatilishida to'rt variantlilik, ya'ni to'rtta allomorf ko'rinishida mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bular: *-g'a* (190-betda qaysig'a, holig'a; 191-betda devoniylarg'a, bandag'a; 192-betda o'tig'a, jarohatig'a; 193-betda qotillarig'a, tang'a, jong'a; 48-betda yo'lg'a, ishqig'a, husnig'a), *-ka* (49-betda sulukka), *-qa* (87-betda valene'matqa; 160-betda tufroqqa), *-ga* (49-betda ko'ngliga, o'ziga, ishiga) shakllari bilan ifodalangan. Misollardan ko'rinadiki, bunday morfologik shakllarning 4 variantlilikgi til tarixida to'liq amal qilib, bugungi kundagi (1995-yildan boshlab) 3 variantlilikka kelib qolgan. Ya'ni sintagmalar tarkibida kelayotgan shakllarning ifoda birliklarining mazmun birliklariga nisbatan miqdori nisbatan kamaygan.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, allomorflarning ayrimlari juda faol bo'lsa, ayrimlari nafaol bo'lgan. Ammo jo'nalish kelishigining barcha shakllari invariant maqomida bo'lgan. Allomorflar orasida eng faoli *-g'a* shakli hisoblangan. *-g'a* shaklining Navoiy asarlarida juda ko'p uchrashi hozirga adabiy tildagi *-ga* morfologik shaklining ko'p qo'llanishi kabi; o'z navbatida bir vaqtlar faol bo'lgan bu shakl endilikda nafaol shaklga aylangan va eski o'zbek adabiy tilida nafaol bo'lgan *-ga* affiksi esa bugun o'ta faol affiksga aylangan. Tarixiy taraqqiyot shuni

ko'rsatmoqdaki, faollik darajasiga ko'ra eski o'zbek tilidagi -g'a shakli bugungi -ga shakliga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Bu esa morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko'rinishlarini isbotlab beradi.

Xuddi yuqoridagi jarayon qaratqich kelishigi shaklida ham mavjud. Til tarixida, jumladan, eski o'zbek adabiy tilida qaratqich shaklining -ing va -ning shaklidagi ko'rinishlarini kuzatamiz: *tabiating komi*(49-bet), *tilning ofati* kabi.

Umuman olganda, morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko'rinishlari mavjud bo'lib, bu jarayonlar qaratqich kelishigi shakllarining ikkita, tushum kelishigi shakllarining ikkita, jo'nalish kelishigi shakllarining to'rtta, chiqish kelishigi shakllarining ikkita variantliligi sababli yuzaga keladi.

Ismlardagi kesimlik shakllari (bog'lamalar yoki shaxs-son)ni eski o'zbek adabiy tilida -men, -sen, -dur, -tur (bugungi kundagi -man, -san, -dir shakllari kuzatilmaydi) shakllarida ishlatilishi mavjud. Bu holat "*ishtur*" (189-bet), "*bordur*", "*ekandur*", "*vojibdur*", "*zabtidur*" (190-bet), "*bermakdur*" (192-bet), "*xushvaqtdurlar*" (193-bet), "*nidosidur*", "*kechmakdur*" (49-bet), "*ulfatdur*" (50-bet), "*qilgaysen*", "*degaysen*" (136-bet), "*yururmen*" (194-bet) kabi so'zshakllarda ko'rinadi. Misollardan anglashiladiki, kishilik olmoshlarining morfemaga tortilish jarayonida hali o'z shaklini yo'qotmaganligini kuzatamiz: -men, -sen. *Ish-tur, ulfat-dur, kech-mak-dur, de-gay-sen, yur-ur-men* kabi morfologik sintagmalarda -tur, -dur singari kesimlik shakllari o'zaro nomutanosiblikning diaxron ko'rinishini ifodalayotgan bo'lsa, -sen, -men kabi shaxs-son shakllari bugungi kundagi shakllariga nisbatan sinxron ko'rinishini ifoda etmoqda. Demak, kesimlik va shaxs-son shakllari morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko'rinishlarini ifodalaydi. Morfologik shakllarda ifoda birliklarining mazmun birliklariga nisbatan miqdori turlichadir. Masalaning ikkinchi tomoni esa, har bir shaklning diaxron va sinxron ko'rinishdan -tur – -dir, -dur – -dir, -sen – -san, -men – -man holatidagi (ko'rinishidagi) nomutanosiblikni ham kuzatishimiz mumkin. Bu holat morfologik shakllarning bugungi kundagi fonetik o'zgarishlari sababli yuzaga chiqmoqda.

*Edi* to'liqsiz fe'lining diaxron ko'rinishi *bo'lmoq* mazmunini ifodalovchi *erdi* shaklida qo'llanilgan vaqtdan boshlab, uning tarkibida o'zgarishlar kuzatiladi. *Edi* shakli *ermoq* fe'lining qisqarishidan hosil bo'lgan bo'lib, asli asos "er" so'zidir. Vaqtlar o'tishi bilan "r"ning fuziyaga uchrashi orqali asos tarkibi e holiga kelib qolgan. Chunki bu shakl Navoiy davrida "*ermishkim*", "*erdi*", "*erdikim*" (48-bet), "*ermish*" (57-bet), "*erdingiz*" (193-bet) kabi ko'rinishlarda qo'llanilib, taraqqiyotning keyingi davrida sintagma tarkibida o'zgarish sodir bo'lgan. Demak, aslida bu so'z "*erdi*" shaklida bo'lgan. Tarixiy taraqqiyot natijasida "r" tovushi tushib qolib, so'z yanada qisqarishga uchragan. "*Edi*"ning bugungi kunda ham fuziyalanishi kuzatiladi va u -di shaklidagi morfologik shaklga aylanib bormoqda. *Edi* va -di shakllari ma'no ifodalash nuqtayi nazardan deyarli bir xil ko'rinishga kelib qolgan bo'lsa-da, *edi* uzoq o'tmishni, -di yaqin o'tmishni ifodalaydi. *Ermishkim* sintagmasi tarkibidagi (er-mish-kim) -mish o'tgan zamon sifatdoshi hozirgi davr -gan shakli mavqeyida, -kim yuklamasi esa -ki tarzida nomutanosiblikni yuzaga chiqarmoqda. Shakllanish nuqtayi nazardan -mish harakat nomi shakli mazmunan

sifatdosh shakli bo'lib olishi morfoflogik sintagmada nomutanosiblikning diaxron ko'rinishiga misol bo'ladi. *-kim* yuklamasi tarkibidagi “*m*”ning fuiziyalanishidan *-ki* shakliga kelib qolishi nomutanosiblikning sinxron ko'rinishini ifodalaydi.

Fe'llar borasida so'z ketganda (A.Hojiyev ham ta'kidlagan) eski o'zbek adabiy tilidagi ko'pgina so'zlar bugungi ko'rinishidan farq qiladi. Bu holatlar fe'lning zamon, nisbat, sifatosh, ravishosh, harakat nomi shakllarida ham kuzatiladi. Navoiy asarlarida buni yaqqol ko'rish mumkin. Eski o'zbek adabiy tilida “*bo'lgay*” so'zi tarixiy taraqqiyot natijasida “*bo'ladi*” shakliga kelib qolgan. *Bo'l-g'ay* sintagmasidagi *-g'ay* (-ay, -y) istak mayli shakli taraqqiyot natijasida “*g*”ning fuiziyaga uchrashi sababli nomutanosiblikning daxron ko'rinishi hosil bo'ladi. Shuningdek, *-di* zamon shaklini *-ti* varianti qo'llanilgan so'zlar ham juda ko'p uchraydi: “*tushti*”, “*yetti*” (49-bet). *-di* va *-ti* shakllari eski o'zbek adabiy tilida ham to'liq amalda bo'lib, morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron ko'rinishini ifodalaydi. *-ti* shakli bugungi kunda III shaxsda hozirgi zamon shaklini ifodalayotgan *-yapti* affiksining ikkinchi qismidagina saqlanib qolgan. Kelasi zamon qo'shimchasi “*-adi*” shakli esa Navoiy davrida “*-gay*” shaklida qo'llanilgan: “*yetkurgaylar*” (259-bet).

Eski o'zbek adabiy tilida *-(i)b* ravishosh shaklining “*-ub*” ko'rinishi faol ishlatilgan. Bu holat bugungi kunda singarmonizm hodisasidan yiroqlashib asosiy so'zlarga *-ib* shaklida qo'llaniladi. Aslida esa, Navoiy “*oshub*” (49-bet), “*kelturub*” (191-bet), “*yetkurub*” (193-bet) shaklida qo'llagan. *-gan* shaklini esa *-g'on*, *-qon* (ba'zi hollarda *-ur*) shakllarida ishlatilganligini ko'ramiz. Tarixiy taraqqiyot morfologik shakllar tarkibidagi “*g*” va “*q*” tovushlarini “*g*” shakliga, “*o*” tovushini “*a*” shakliga o'tib ketganligini ko'rsatmoqda. Morfologik shakllar tarkibini asosiy qismi o'zgarib ketgan bo'lsa-da, mohiyatidan yiroqlashmagan. Bu shakllar “*qochqon*” (49-bet), “*qilg'on*” (191-bet), “*ozg'onlar*”, “*bo'lg'on*” (259-bet), “*o'qur kishi*” (190-bet) holatda keltirilgan bo'lib, bugungi kunda *qochgan*, *qilgan*, *ozgan*, *bo'lgan*, *o'qigan* shakllarida ishlatiladi. Harakat nomi shaklining *-ur* (190-betda “*o'qurda*”), *-mak* (49-betda “*kechmakdur*”), *-moq* (50-betda “*turmoq*”) ko'rinishlari amalda bo'lgan. Bugun esa *-ish* va *-moq* variantlari saqlanib qolgan. *-mak* holati esa batamom *-moq* holatiga, *-ur* shakli esa *-ish* shakliga o'tib ketgan. Nomutanosiblikning bir ko'rinishi sifatida fe'l shakllari orasida shakldoshlik hodisasi Navoiy davrida ham bo'lgan, keyinchalik bu morfemalar o'z mustaqilligiga erishib, ko'rinish jihatidan o'zgargan. “*O'qurda*” (o'qishda) – “*o'qur kishi*” (o'qigan kishi). Misollarda ko'rinib turibdiki, *-ur* fe'l shakllari ichida shakldosh qo'shimcha hisoblangan. Bu holatdan anglashiladiki, so'z tarkibidagi morfem birliklar diaxron va sinxron nuqtayi nazardan qaralganda turli o'zgarishlarga uchragan va nomutanosibliklarni yuzaga keltirgan.

Fe'l nisbatlarida ham shakllar bugungidan ko'p ekanligi ma'lum bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *-in*, *-il* (ko'rindi, ko'rildi) shaklidagi fe'l nisbatlari mavjud. Navoiy asarlari tilida bu shakllarning turli allomorflari qo'llangan. Bundan shuni aniqlash mumkinki, eski o'zbek adabiy tilida fe'l nisbat shakllarining turi ko'p bo'lgan. Masalan, hozirgi *-in* shakli o'rnida *-un* (192-betda “*ko'rundi*”), *-il* (189-, 190-, 191-, 259-betlarda “*qililsa*”), *-ul* (191-betda “*bo'lulmasa*”) shakllari qo'llangan.

Bu shakllarga teng morfemalar bugungi tilimizda bitta shakl bilan ifodalanishga kelib qolgan. Hozirgi *-il* shakli esa *-ul* (191-betda “ko‘rulsal”) shaklida ham ishlatilgan. Orttirma nisbat shakllarida ham o‘ziga xoslik kasb etadi: hozirgi *-ir* shakli *-ur* (191-betda “kelturub”) shaklida, *-giz* shakli *-gur* (67-betda “ko‘rguzsa”) shaklida, *-kaz* shakli *-kur* (259-betda “yetkurgaylar”) shaklida, *-ar* shakli *-or* (259-betda “chiqordilar”, 136-betda “chiqormoqliq”) shaklida keng qo‘llanilgan. Bu holatlar eski o‘zbek adabiy tilida morfologik shakllar rang-barangligini ko‘rsatadi. Shuningdek, morfologik sintagmalardan anglashiladiki, nomutanosiblikning diaxron ko‘rinishi nisbat shakllarida ham uchraydi. Fe‘lning *-in*, *-un*; *-il*, *ul*; *ir*, *ur*; *giz*, *-gur*; *kaz*, *kur*; *ar*, *or* kabi nisbat shakllari morfologik sintagmalarda shakl va mazmunga nisbatan nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlarini ifodalaydi. Chunki bunday turli variantlilik shakllarning ortishi orqali ifodalanayotgan bo‘lsa-da, bir mazmunga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotda (eski o‘zbek adabiy tilidan hozirgi o‘zbek adabiy tiligacha besh asr vaqt o‘tganligi bois) so‘zshakl – sintagmaning o‘zgarishlari ham kuzatiladi. Birinchi holatda tovushlarning o‘zgarishini kuzatish mumkin: “*bila*” (191-bet) *bilan* holatiga kelgan, “*qilinur*” (190-bet) *qilinadi* holatiga, “*ko‘ngul*” (192-193-betlar) so‘zi *ko‘ngil* holatiga, “*qo‘yub*” so‘zi *qo‘yib* holatiga, “*yetkursalar*” (191-bet) *yetkazsalar* holatiga kelib qolgan. Shu bilan birgalikda “*ortuq*” (ortiq), “*topshurulsa*” (topshirilsa), “*yetkurdi*” (yetkazdi), “*yetkurib*” (yetkazib), “*o‘tkarib*” (o‘tkazib) kabi so‘zlarda ham turli tovush o‘zgarishlari bo‘lgan. “*yafrog‘lari*”, “*yovushti*” (49-bet) so‘zlari tarkibida ikkitadan tovush o‘zgarishlarini sezish mumkin. Bunda asosan “p” tovushi “f” bilan ifodalanayotganligini kuzatamiz. “*sovug‘*” (49-bet) (sovuq), “*orig‘ay*” (50-bet) (arigay). “*O‘qusa*”, “*uzottilar*”, “*yig‘och*” (57-bet) so‘zlari tarkibi ham bugun o‘zgargan. Demak, sintagma tarkibidagi *-ur* shakli *-adi*; *-ub* shakli *-ib*; *-kur* shakli *-kaz*; *-kar* shakli *-kaz*; *-ti* shakli *-di*; *-g‘ay* shakli *-gay* tarzida (bugungi kunda) ifodalanib nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlarini yuzaga chiqarmoqda.

Morfologik sintagmalar tarkibida ortiqchalik (murakkablashuv) kuzatiladi: “*-kim*” shakli bilan ortiqchalik hosil qilayotgan so‘zlarga to‘xtalib, u so‘zlar tarkibidagi bu birlik hozirda batamom yo‘q bo‘lib ketganligini ko‘rdik: “*bu mahaldakim*”, “*qilsakim*” (190-bet) “*bitilsakim*”, “*ulkim*”, “*bo‘lsakim*”, “*qililsakim*”, “*har qaysi ishkim*” (191-bet). Buni shunday izohlash mumkinki, ikki davr o‘rtasida nomutanosiblik kuzatiladi.

Morfologik sintagmalarning qisqarishi yoki asosning o‘zi o‘zgarishini kuzatish mumkin: so‘z tarkibi qanchalik murakkablashmasin, tabiiy ravishda soddalanishga (qisqarishga) intilaveradi. “*Aytur erdi*”, “*tutub erdi*” (49-bet) kabi so‘zlar tarkibidagi analitik shakllar bugun “*aytardi*”, “*tutardi*” so‘zlar tarkibidagi morfologik shakllarga kelib qolgan. Ikki so‘zning qo‘shilishi va ular orasidagi birikuvning natijasida ikki so‘z tarkibida ham o‘zgarish sodir bo‘lib, bir so‘zshakl holatiga kelib qoladi. Bugun bu so‘zni biz tub so‘z deb ataymiz. Navoiy davrida esa bu ikki so‘z – yetakchi-ko‘makchi tarzida ifodalangan. “*Edikim*” (48-bet) so‘zining qisqarishi tufayli oxiridagi “m”ning tushib qolishi *ediki* holatiga asos bo‘ldi. “*Sirrin*” (57-bet) tarkibidagi bitta “r”ni qisqarishi ham yuqoridagi holatni ko‘rsatadi. “*andoq*” (59-bet)

soʻzi esa “ozroq” shakliga kelib qolgan.

Demak, tarixiy taraqqiyot natijasida roʻy bergan tildagi baʼzi oʻzgarishlarni Navoiy asarlarida kengroq kuzatish mumkin (Aslini olganda, bu tadqiqot juda katta ish boʻlganligi sabab biz uning mavzuga aloqador elementlariga toʻxtaldik, xolos). Til tarixida qoʻllanilgan morfemalar bugungi tilshunosligimizda turli oʻzgarishlarga uchragan. Bu oʻzgarishlar sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron koʻrinishlari mavjudligini koʻrsatishga, izohlashga, solishtirib koʻrishga, farqlashga asos boʻladi.

### Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14 жилд. – Тошкент, 1998.
2. Щербак А.М. К истории узбекского литературного языка древнего периода / Академику В.А.Гордлевскому к его 75-летию. –М., 1953.
3. Усмонов С. Сўзнинг морфематик ва функционал анализи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. 1-сон,
4. Ўзбек тили грамматикаси, II жилдлик, I жилд. –Тошкент, 1975.
5. Оралбаева Н. Аналитические формы глагола в современном казахском языке. Автореф. дисс... д-ра. филол. наук. – Алма-ата, 1971.
6. Юлдашев А.А. Соотношение деепричастных и личных форм глагола в тюркских языках. –М., 1977.

### AYRIM LEKSEMALARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA

**Yodgorov Hamid Ergashevich,**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
e-mail: [hamid.yodgorov@mail.ru](mailto:hamid.yodgorov@mail.ru)  
Guliston davlat universiteti

**Annotatsiya.** Har bir xalqning asriy tajribalarini oʻzida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, uni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish hozirgi fan oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Hozirgi, yaʼni ilmiy – texnik taraqqiyot davrida, axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalariga jadal surʼatlar bilan kirib borayotgan XXI asrda adabiy tilning xalq tiliga, dialektlarga taʼsiri katta boʻladi.

Bu, oʻz navbatida, xalq tilida mavjud boʻlgan baʼzi vositalarning unutilib ketishiga, ularning asta – sekin yoʻqola borishiga sababchi boʻladi. Shunday leksik qatlamlardan biri, shubhasiz, oʻzbek tilidagi qarindoshlik terminlaridir.

Mazkur maqolada **qalliq** va **boʻydoq** leksemalarining etimologiyasi hamda ularning jinsni ifodalashdagi oʻrni ilmiy yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** etimon, etimologiya, leksema, leksika, qalliq, boʻydoq, termin, terminologiya, rekonstruksiya, maʼno torayishi, gender kabi.

**Abstract.** Preserving the linguistic wealth of the native language, which embodies the centuries-old experiences of each people, its scientific analysis, and transmission to future generations is one of the important tasks facing modern science.